

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI

Alimova Maysarabonu Haqberdi qizi

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali

"Psixologiya" kafedrasи, 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni bilish jarayonlarining rivojlanib borishiga bag`ishlangan bo`lib, maqolada bolaning sog`lom har tomonlama kamol topib shakllanishi, ularning bilim olishga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda ota- ona va tarbiyachilarning o`rni haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: o`yin faoliyati, xotira, diqqat, tafakkur, sezi maktabgacha ta`lim.

Bog`cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya, shaxsiy gigiena,ma`daniy va mehnat malakalarini shakllantirish rivojlanirish ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Maktabgacha ta`lim tizimining eng muhim vazifasi bola shaxsini har tomonlama maktabga tayyorlash hisoblanadi.Albatta bu jarayonni amalga oshirishi bilish jarayonlarining rivojlanib borishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib ko`radigan bo`lsak maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlanirish haqida turli metod va ma`lumotlar mavjud. Bog`cha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi jadal kechadi.

Nishonova Z. "Rivojlanish psixologiyasi" kitobida bilish jarayonlarining rivojlanishini qo`yidigicha talqin etadi " Bola ranglarni bir – biridan jadal farq qilolmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o`yinchoqlar, rangli kiyimlar,rangli qo`tichalar va shu singari o`yinchoqlar berish maqsadga muvofiq.

Bola suratni idrok qilayotganda kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o`rgatish lozim.

Bu yoshdagagi bolalar diqqati ixtiyoriyorsiz bo`ladi. Ixtiyororsiz diqqatning o`sib borishi uchun o`yin muhim rol o`ynaydi. Xotiraning o`sishida turli o`yinlarning ahamiyati katta.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning xotirasi ko`rgazmali-obrazli bo`lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko`proq ixtiyororsiz esda qoldirish va ixtiyororsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so`zlarni hech qanday ma`nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik kattalarning ta`sirida, ixtiyororsiz esda qoldirish ham asta-sekin rivojlanib boradi. Bola ravshan va emotsiyal materiallarni oson esda qoldiradi.

Uch yoshar bola taasurotlarini bir necha oy saqlab turishga qodir hisoblanadi. Xotiraning o`sishida turli o`yinlar, mashg`ulotlar,she`r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida ko`zatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagagi bolalar yangi so`zlarni ham hatto chet tilidagi so`zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materiallarni oson esda qoldirsalar ham, ularning ko`pini ma`nosiga tushunmaydilar va ularni nutqida foydalanishga qiynaladilar.Kattalarning vazifasi bolalarni mumkun qadar ko`proq so`zlarni va tasavvurlarni eslab qolishgagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo`lgan bilimlarni egallashiga erishishdan iborat.

Bog`cha yoshdagagi bolalarda turli sohaga doir savollarning to`g`ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o`zining savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar undagi qiziquvchanlik suna boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish hayron qolish va

natijada turli savollarning to`g`ilish tufayli paydo bo`ladi. Ko`pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar “ ko`p mahmadona bo`lma “ “ Sen bo`nday gaplarni qayerdan o`rganding ? “ deb koyib beradilar. Natijada bola uksinib o`z bilganicha tushunishga harakat qiladi . Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg`ulotlar va sayohatlarda kattalarning o`zlarini ham savol berishlari va shu bilan ularni faoallashtirishlari lozim.

Kichik yoshdagagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o`rgangan A.N.Golubevaning fikricha noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish unda o`jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagagi bolalarning o`jarligi doimiy bo`lmaydi, masalan o`z tengdoshlariga nisbatan o`jarlik qilish axyon – axyondagina ro`y beradilar, ular asosan katta yoshdagagi odamlarga, tarbiyachiga yoki oila a`zolarining birortasiga o`jarlik qiladilar.A.P.Larining tadqiqotida esa noqulay va nomaqbo`l tarbiyaviy shart – sharoitlarda qaysarlilik juda erta xatto uch yoshda xam ifodalangan. Dastlab o`jarlik ba`zi – ba`zida ro`y beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagagi kishilarga qaratilgan bo`lmaydi, binobarin uning obyekti alohida shaxs hisoblanadi. Bola xarakterining bu xususiyati muhitning notug`ri tarbiyaviy ta`siri oqibatida biror darajada barqarorlashsa, keyinchalik ko`pchillikga qaratilgan, umumlashgan shaklga kira boshlaydi . O`jarlik bir guruh odamlarga yo`nalganligini ham o`chratish mumkun.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak maktabgacha ta`lim
O`zluksiz ta`limning boshlang`ich qismi hisoblanadi.

Bu yosh davrida bolada o`qishga bo`lgan qiziqish uyg`onadi. Bolada bilish jarayonlarining rivojlanib borishi uchun ota – onalar tarbiyachilar bolaga bo`lgan qulaymuhitni yaratish va bolaga to`g`ri munosabatda bo`lishi lozim.

Hozirgi kunda yoshlarimiz barkamol shaxs bo`lib ulg'ashi uchun barcha sharoitlar yetarli. Bu haqida muhtaram prizidentimiz asarlarida ta'kidlab o'tgan.

"Yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo`lishi ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur."

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Z.N Nishonova, N .G. Komilova, P.U.Abdullayeva, M.X . Xolmonova "Rivojlanish Psixologiyasi"
- 2) G`oziyev "Ontogenetik psixologiyasi"
- 3). Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi."